

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SADULLAYEVA MOXIRA ATAVULLAYEVNA**

**LUQMON BO'RIXONNING QISSA VA HIKOYALARIDA BADIY  
MAHORAT MASALASI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**URGANCH-2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Sadullayeva Moxira Atavullayevna**

Luqmon Bo‘rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat  
masalasi.....3

**Садуллаева Мохира Атавуллаевна**

Проблема художественного мастерства в рассказах Лукмана Бурихана  
.....26

**Sadullayeva Moxira Atavullayevna**

The issue of artistic skills in Luqman Burikhan’s stories .....51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....57

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SADULLAYEVA MOXIRA ATAVULLAYEVNA**

**LUQMON BO‘RIXONNING QISSA VA HIKOYALARIDA BADIY  
MAHORAT MASALASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch-2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil 2732 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)) va «Ziyonet» axborot ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G'ayipov Dilshod Qadambayevich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Karimov Bahodir Nurmatovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Keruenov Turganbay Arazmedovich  
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «6» aprel soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00, e-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (968 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023- yil «18» mart kuni tarqatildi.

(2023 -yil «18» mart dagi 10 - raqamli reestr bayonnomasi).



Z.Do'simov  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori,  
professor

S.M.Sariyev  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), dotsent

A.D.O'razboyev  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.v.b.,  
filologiya fanlari doktori (DSc),  
dotsent

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligi oldida soʻz sanʼati jozibasi orqali olam va odam munosabatlarini badiiy tadqiq qilishdek juda muhim adabiy-nazariy masalalar mavjud. Bugungi globallashuv davrida insoniyat ijtimoiy hayotida yuz berayotgan yangilanishlar, oʻzgarishlar badiiy adabiyotda aks etishi bilan bir qatorda, oʻsha jamiyat maʼnaviyatini yuksaltirishga ham xizmat qilishi lozimligini davrning oʻzi taqozo qilmoqda. Yuksak umumbashariy gʻoyalar targʻib qilingan jahon adabiyoti xazinasidan oʻrin olgan asarlar kitobxon badiiy didini oʻstirish bilan bir qatorda, dunyoqarashi, badiiy tafakkuri yuksalishiga ham yordam beradi. Ana shulardan kelib chiqib, bunday asarlar yozgan mahoratli adiblar badiiy isteʼdodi qirralarini oʻrganish ham adabiyotshunoslik ilmi oldidagi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiylikning turli koʻrinishlari mavjud boʻlib, badiiy matnning tasvir koʻlami, muallifning munosabati, obrazlar olamining tanlanishi va qoʻyilgan masalani ular vositasida poetik idrok etilishi-yu, estetik ideali, dunyoqarashi, talqin muammolari, umuman olganda, yozuvchi badiiy mahoratining oʻziga xos qirralari u yaratgan ijod mahsuli misolida tadqiq etib kelinmoqda. Muayyan yozuvchining turli xil yillarda va oʻziga xos uslubda yozgan asarlaridagi ruhiy iztiroblar talqini, davr manzarasi, xarakter va tipik sharoitda betakror obraz yaratish, badiiy asarda qahramon problematikasi kabi anʼanalar tadriji asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida ham ijodkor badiiy mahorati ilmiy muammosi tadqiqi istiqlol yillarida dolzarb masalaga aylandi. Maʼlumki, milliy maʼnaviyatni takomillashtirish, komil shaxsni tarbiyalashda olimlarning, yozuvchi va shoirlarning roli nihoyatda kattadir. Zero, mamlakatimiz Prezidenti taʼkidlaganlaridek: “Men shoir va adiblar, rassomlar, kompozitorlar, ommaviy axborot vositalarining vakillari bilan doimiy muloqotda boʻlaman. Shu bois toʻla ishonch bilan ayta olamanki, ular oʻz kasbiga, ona Vatanimiz, xalqimizga juda sodiq insonlardir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, ijodkorlar, shoir va yozuvchilar oʻz asarlari bilan kelajakka nur, ziyo tarqatib turadilar. Ularning ijod mahsullari oʻziga xos mahorat bilan yaratilgan boʻlsa, koʻzlangan maqsadga erishiladi, albatta. Oʻzbek adabiyotida badiiy mahorat mahsuli boʻlgan, goʻzal sanʼatkorlik bilan yaratilgan asarlar ancha. Istiqlol davri adabiyotida insonni har jihatdan tasvirlash, uning zohiriy va botiniy olamini badiiy kashf etish miqyoslari kengaydi. Jumladan, Luqmon Boʻrixon asarlarida shoʻro zamon va yangi davr odamlarining obrazlari totalitar tuzumning inson qalbida qoldirgan asoratlari, iztirob va fojealari orqali maromiga yetkazib badiiy gavdalantirilmoqda. Shuningdek, istiqlol keltirgan erkinlikdan bahramandlik va yangilanishlardan qoniqish motivlari keng oʻrin olmoqda. Shu bois ham yozuvchi asarlari, xususan, qissa va hikoyalari badiiy mahorat muammosi nuqtayi nazaridan oʻrganish, ulardagi adabiy-estetik tamoyillarni aniqlash va bu asosda bugungi oʻzbek nasri badiiyatiga xos asosiy tendensiyalarni tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: “Oʻzbekiston”. 2017. B. 477.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 29-oktabrdagi URQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda bu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek adabiyotida badiiy mahorat masalasi hamma davrlarda ham mutaxassislar e‘tiborida bo‘lgan. Ma‘lumki, badiiylik asar g‘oyasini ochib beruvchi kalit sanaladi. Shu bois yozuvchi badiiy mahorati masalasida adabiyotshunoslikda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek olimlaridan I.Sulton, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, I.Haqqulov, B.Sarimsoqov, U.To‘ychiyev, H.Umurov, A.Rasulov, I.G‘afurov, B.Karim, D.Quronov va boshqa olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida badiiyat mezonlari, ijodkor badiiy mahorati, adib individualligini belgilovchi adabiy-estetik omillar kabi masalalar bilan jiddiy shug‘ullandilar.

Shuning bilan birga, adabiyotda obraz va obrazlilik, badiiy mahorat, yozuvchi uslubi masalasiga oid jahon<sup>2</sup> hamda o‘zbek<sup>3</sup> olimlari tomonidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar<sup>4</sup> olib borilgan. Jumladan, o‘zbek nasri poetikasi bo‘yicha ham qator ishlar amalga oshirilgan. Bu borada istiqloq yillarida yozilgan ilk tadqiqotlardan biri H.Boltaboyevning “Nasr va uslub” asari bo‘lib, hozirgi o‘zbek nasridagi uslubiy izlanishlar masalasiga bag‘ishlangan. Olim ijodkor iste‘dodida uslub rolini alohida ta‘kidlar ekan, “murakkab ijodiy uslubiy jarayonni ma‘lum bir badiiy

---

<sup>2</sup> Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов.писатель, 1963; Виноградov В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 404; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛГУ, 1960.

<sup>3</sup> Кўшжонов М. Янги замон – янги қахрамон. – Тошкент: “Фан”. 1982; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: “Шарк”, 2004; Умуров Ҳ. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: “Фан”. 1983; Тўйчиев У. Бадийлик мезонлари ва маромлари. – Тошкент: 2011; Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: “Фан”. 2006;

<sup>4</sup> Сulton И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1980. – Б.408; Кўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: “Фан”, 1991. – Б. 299-382; Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1978; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: “Маънавият”. 2000; Умуров Ҳ. Бадий ижод асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон” 2001; Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1980; Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: “Ёш гвардия”, 1985; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: “Чўлпон”. 2002; ва б.

asarning ichki tabiatidan, tahlilidan kelib chiqib tushunish lozim”<sup>5</sup>, – deb yozadi va yozuvchi uslubi asar badiiyatini ta’minlashda muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi.

D.Quronovning “Cho’lpon nasri poetikasi” asari nasr badiiyati muammolarini o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi<sup>6</sup>. Albatta, bu ilmiy manbalar biz tadqiq qilayotgan Luqmon Bo’rixon asarlarining poetik xususiyatlarini yaxlit adabiy jarayon kontekstida monografik yo’sinda tadqiq etishga yordam beradi.

Luqmon Bo’rixon ijodi, uning badiiy mahorati bir qator adabiyotshunos va munaqqidlar, yosh tadqiqotchilar tomonidan muayyan aspektda o’rganilgan. Jumladan, H.Karimov, Y.Solijonov, B.Karimov, Q.Yo’ldoshev, I.Yoqubov, M.Qo’chqorova, P.Kenjayeve, B.Rahimova, O’Ro’ziyeva va boshqalar tadqiqotlarida yozuvchi ijodi xususida iliq fikrlar aytilmoqda.

Adabiyotshunos H.Karimov “Bugungi nasrning xususiyati va tamoyillari” nomli maqolasida istiqloq davri hikoya, qissa va romanlariga xos jihatlar xususida to’xtalar ekan, Luqmon Bo’rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanini iliq baholaydi<sup>7</sup>. Q.Yo’ldoshev bugungi adabiy jarayonda Luqmon Bo’rixon ijodining o’ziga xos o’ringa ega ekanligini qayd qilib, adibning qator hikoya va qissalari, shuningdek, “Jaziramadagi odamlar” romanini tahlil qiladi<sup>8</sup>.

Adabiyotshunos I.Yoqubov “Mustaqillik davri o’zbek romanlari poetikasi” nomli monografiyasida Luqmon Bo’rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanining poetik jozibasi xususida to’xtalib, asar mohiyatida tabiiy-biologik yondashuv, ekzistensializm va personalizm tomon siljish borligini ta’kidlaydi<sup>9</sup>.

Yosh tadqiqotchi Y.Mahmudovning “Hikoya badiiyati” (Luqmon Bo’rixon hikoyalari misolida) nomli risolasi yozuvchi hikoyalari badiiyati tahliliga bag’ishlanadi<sup>10</sup>.

B.Rahimovning “Hikoyada milliylik talqinlari” nomli maqolasida Luqmon Bo’rixonning “Sut sotuvchi bola” nomli hikoyasi tahlilga tortiladi, hikoyada muallifning milliy xarakter yaratishdagi mahorati yoritiladi<sup>11</sup>. O’Ro’ziyevaning “Luqmon Bo’rixon asarlarida sayyor obrazlar” maqolasida adib qissa va romanlaridagi sayyor obrazlar xususida fikr yuritiladi<sup>12</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlarda Luqmon Bo’rixon asarlari qisman tadqiq etilgan bo’lsa-da, adib ijodi, uning badiiy mahorati, uslubiy o’ziga xosligi masalalari atroflicha o’rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi.** Tadqiqot mavzusi Berdaq

<sup>5</sup> Болтабоев Х. Nasr va uslub. –Тошкент: “Фан”. 1992. Б.44

<sup>6</sup> Қуроноф Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Тошкент: “Шарқ”.2004. 288 б.

<sup>7</sup> Каримов Х. Бугунги насрнинг хусусияти ва тамойиллари // Шарқ юлдузи. 2010. 3-сон.

<sup>8</sup> Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2006. 678 б.

<sup>9</sup> Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: 2021. Б. 39.

<sup>10</sup> Маҳмудов Ё. Хикоя бадийати. –Тошкент: “Turon zamin ziyo”. 2017. 61 б.

<sup>11</sup> Раҳимова Б. Хикояда миллийлик талқинлари//Тафаккур зиёси. 37-жилд. –Тошкент: “Адабиёт учкунлари”, 2016.

<sup>12</sup> Рўзиева Ё. Луқмон Бўрихон асарларида сайёр образлар// Ўзбек тили ва адабиёти, 2021. 2-сон 44-49 б.

nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida ilmiy ishlar rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Luqmon Bo‘rixonning hikoya va qissalari poetikasi hamda yozuvchining badiiy mahoratini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Luqmon Bo‘rixon hikoya va qissalari misolida o‘zbek nasri poetikasi va ijodkor mahoratining adabiy-estetik asoslarini o‘rganish;

yozuvchining badiiy asar poetikasi takomiliga asos bo‘lgan o‘ziga xos mahorat qirralarini tahlil qilish, hikoya va qissalarning badiiy xususiyatlarini boshqa ijodkorlar asarlari bilan qiyosiy o‘rganish va asosli xulosalar chiqarish;

adib hikoyalaridagi o‘ziga xos uslub, tasvir, tagma’no qatlamlarini o‘rganish;

yozuvchi hikoyalaridagi obraz va obrazlilik masalasi, inson ruhiy olami, orzu-armonlarining poetik talqini muammosi, shuningdek, adolat, ezgulik, haqiqat singari umuminsoniy g‘oyalarning badiiy ifodasini tahlil etish;

adibning qissa yaratishdagi badiiy mahorati va ularning uslubiy-kompozitsion xususiyatlarini o‘rganish;

adib qissalari takomilida badiiy tasvir vositalarining mavqeyi hamda so‘z qo‘llash mahoratini tadqiq etish;

bugungi o‘zbek nasri rivojida Luqmon Bo‘rixon ijodining o‘rnini yoritish va ijodkor dunyoqarashi, uslubi va iqtidorining o‘ziga xosligini ko‘rsatish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Luqmon Bo‘rixonning “Xizr ko‘rgan yigit” (2007), “Tun qa’ridagi shu’la” (2012), “Quyosh hali botmagan” (2015), “Titrayotgan tog’” (2018), “Marhamatli kun” (2019), “Jaziramadagi odamlar” (2004), “Begonalar yurmas bu yerda” (2019) kabi kitoblari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy o‘zbek adabiyotida Luqmon Bo‘rixon nasrining o‘ziga xos xususiyatlari, milliy nasr poetikasida namoyon bo‘layotgan yangicha tafakkur tarzining adib ijodida aks etishi, hikoya va qissalarida obraz va obrazlilik, uslub va yozuvchi badiiy mahoratini belgilovchi adabiy-estetik omillarni tadqiq qilish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, analitik, biografik, psixologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Luqmon Bo‘rixon ijodida badiiy-estetik tafakkurining yuksalishiga ijtimoiy, ma’naviy omillar ta’sir ko‘rsatganligi, ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, obraz yaratish iqtidori ochib berilgan;

yozuvchi nasri poetikasini tashkil etuvchi syujet chizig‘i, epigraf, kiritma voqea, portret, peyzaj kabi uslubiy-kompozitsion va badiiy tasvirni kuchaytiruvchi vositalar (ritorik so‘roq gaplar, undov so‘zlar, undalmalar), alliteratsiya, tashbeh va takror singari ifodaviy unsurlar tizimi belgilanib, badiiy talqinda hayotiylik, ramziylik, umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari yetakchilik qilganligi dalillangan;

adib hikoyalarida hayotiy voqeliklar va olamni badiiy tasavvur qilish uslubi, qahramonlar ruhiyati va xarakteridagi samimiylik, ochiqko‘ngillilik, quvnoqlik,

mardlik singari milliy qadriyatlar, adolat, hurmat, mehr-oqibat, sevgi, haqiqat kabi umuminsoniylik qirralar ochib berilgan;

Luqmon Bo‘rixon qissalarida real hayot manzaralarini tashqi, ya’ni zohiriy emas, balki insonning ichki, botiniy olamini kashf etishdagi ahamiyatini yoritish orqali olam va odamni badiiy inkishof qilish iste’dodi yozuvchining dunyoqarashi bilan bog‘liqlikda asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Luqmon Bo‘rixon hikoya va qissalaridagi badiiy mahorat masalasining tadqiq qilinish natijalari zamonaviy adabiy jarayon takomiliga xizmat qilishi ko‘rsatilgan;

bugungi o‘zbek nasrida obraz va obrazlilik, yozuvchi uslubi, badiiy mahoratini yoritish adabiyotshunoslikning asosiy jihatlaridan biri ekanligi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar mustahkamlandi;

adib hikoya va qissalarida tarixiy haqiqat va badiiy talqin, yozuvchi biografiyasining badiiy asarda aks etishi qator misollar asosida ko‘rsatilgan;

yo‘zuvchi qissalaridagi uslubiy-kompozitsion jihatlar, g‘oya va mavzu mosligi, obrazlar tabiatidagi milliy xususiyatlar ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida ochib berilgan;

qissa va hikoyalardagi badiiy tasvir vositalari, peyzaj va portret, dialogik va monologik nutq qahramonlar ruhiyatini ochib beruvchi muhim vositalardan biri ekanligi ta’kidlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyani shakllantirishda obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, Luqmon Bo‘rixon ijodidan tanlab olingan hikoya va qissalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalarning qiyosiy-tarixiy, analitik, biografik, psixologik tahlil usullari vositasida chiqarilgani, nazariy qarashlar hamda xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan aniqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati yozuvchining badiiy iqtidori, so‘z qo‘llash mahorati, badiiy asarni qiyosiy-tipologik tekshirish va badiiy tahlilni amalga oshirish sohasidagi ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar, xulosalar qahramon ruhiyatini, shuningdek, nasriy asarlarni badiiylik, obrazlilik nuqtayi nazardan tahlil va tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlarga manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan respublikamiz oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitiladigan fakultetlarda maxsus kurs yoki seminar mashg‘ulotlari o‘tkazishda, shuningdek, umumta’lim maktablari, litsey, kollejlarning adabiyot o‘qituvchilariga metodik qo‘llanma sifatida foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotdagi badiiy asarni ilmiy-nazariy tahlil etish, yozuvchi badiiy mahorati masalasini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy umumlashmalar “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon” kabi fanlardan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar yozishda material bo‘lib xizmat etadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Luqmon Bo‘rixon qissa va hikoyalaridagi badiiy mahorat muammosini tadqiq etish hamda uning o‘zbek nasri takomilidagi ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish jarayonida olingan ilmiy natijalaridan:

Luqmon Bo‘rixon ijodida badiiy-estetik tafakkurining yuksalishiga ijtimoiy, ma‘naviy omillar ta‘sir ko‘rsatganligi ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati, obraz yaratish iqtidori ochib berilgani haqidagi xulosalardan A1-XT-0-92997-raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy va 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan F3-2016-0908165532 - raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental tadqiqoti loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi O‘zbekiston Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 9-avgustdagi № 193-son ma‘lumotnomasi). Natijalar Luqmon Bo‘rixon asarlari badiiyati, ijodkor mahorati masalalarini tadqiq qilish orqali bugungi o‘zbek nasri taraqqiyotini o‘rganishda adabiyotshunoslik uchun muhim degan xulosaga kelishga asos bo‘lgan;

yozuvchi nasri poetikasini tashkil etuvchi syujet chizig‘i, epigraf, kiritma voqea, portret, peyzaj kabi uslubiy-kompozitsion va badiiy tasvirni kuchaytiruvchi vositalar (ritorik so‘roq gaplar, undov so‘zlar, undalmalar), alliteratsiya, tashbeh va takror singari ifodaviy unsurlar tizimi belgilanib, badiiy talqinda hayotiylik, ramziylik, umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik tamoyillari yetakchilik qilganligi dalillanganligi yuzasidan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish” mavzusidagi amaliy loyihasida (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi O‘zbekiston Pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 9-avgustdagi № 194-son ma‘lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada bugungi o‘zbek nasrida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan adib Luqmon Bo‘rixon ijodi ilk marotaba monografik talqinda o‘rganilgani, yozuvchi badiiy-estetik tafakkurining yuksalishiga bir qator omillar ta‘sir etgani, yozuvchi nasri poetikasini tashkil etuvchi uslubiy-kompozitsion va badiiy-ifodaviy unsurlar tizimi belgilanib, badiiy talqindagi yetakchi tamoyillarni g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishdagi ahamiyati aniqlangani, adib hikoyalaridagi hayotiy voqelik va badiiy talqindagi uslub, o‘ziga xoslik ochib berilgan, shuningdek, Luqmon Bo‘rixon nasri badiiyatini, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish natijalari zamonaviy adabiyotshunoslik ilmiga yangi nazariy xulosalarni olib kirishi isbotlangan.

adib hikoyalaridagi hayotiy voqelik va olamni badiiy tasavvur qilish uslubi, qahramonlar ruhiyati va xarakterlardagi samimiylik, ochiqko‘ngillilik, quvnoqlik, mardlik singari milliy qadriyatlar, adolat, hurmat, mehr-oqibat, sevgi, haqiqat kabi umuminsoniylik qirralari ochib berilganligi hamda Luqmon Bo‘rixon qissalarida real hayot manzaralarini tashqi, ya‘ni zohiriy emas, balki insonning

ichki, botiniy olamini kashf etishdagi ahamiyatini yoritish orqali olam va odamni badiiy inkishof qilish iste'dodi yozuvchining dunyoqarashi bilan bog'liqlikda asoslanganligi yuzasidan tavsiyalardan Qoraqalpog'iston telekanalining "Assalawma aliykum, Qoraqalpog'iston!", "Adebiyat ham zaman" ko'rsatuvlari va Qoraqalpog'iston radiokanalining "Ruwxiylik bostani" eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasining 2022-yil 25-oktabrdagi № 05-22/6/0-son ma'lumotnomasi). Natijada, yozuvchi qissa va hikoyalarida ifoda etilgan yuksak insoniy tuyg'ular, insonlar tafakkuri, dunyoqarashining boyishida, zamondoshlar qiyofasi yangilanishi va jamiyatning ma'naviy-axloqiy takomilida muhim ahamiyat kasb etishi dalillandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika hamda 7 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, yetti faslni o'z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Nasr poetikasi va ijodkor mahoratining adabiy-estetik asoslari**" deya nomlanib, ikki fasldan iborat. Birinchi fasli "**Nasr poetikasi ilmiy muammo sifatida**" deya nomlanadi, unda asosan nasr poetikasi masalasini tadqiq etishning dolzarbligi o'rganilgan. Shuningdek, roman, qissa, hikoya janrlari badiiyatiga doir tadqiqotlar asosida bu ilmiy muammo tahlilga tortilgan.

Aslida badiiylik muammosi adabiyotshunoslikda doimiy o'rganilib kelinayotgan masalalardan biri sanaladi. Bu masalaga Aristotelning "Poetika" asarida ham to'xtalangan. Ma'lumki, so'z san'atida badiiylik har bir ijodkor talqinida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. IX asrda yashagan arab shoiri va olimi Ibn al-Mo'tazz badiiylikni arabcha "badaa" fe'lidan olingan bo'lib, "yangilik" degan ma'noni bildirishini ta'kidlagan. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida "badi'" so'zining "nafis", "nodir", "ajoyib", "yangi" degan

ma'nolari beriladi<sup>13</sup>. Demak, badiiylik – yangilik, betakrorlik, originallikdir. A.Rasulov “Badiiylik – asarning ruhi, “joni”, borlig‘i. Mana shu ruh, “jon” asardagi ijtimoiy munosabatlarni, xarakterlar to‘qnashuvini, siyosiy qarashlarni, mafkuraviy-axloqiy holatlarni, umuman, asarning makoni, zamoniga oid ma’lumotlarni aks ettiradi. Badiiylikning ma’ni-ma’nosi ham zamon, muhit, zamondoshlar, turlicha qarashlar haqida keng va mo‘l ma’lumot berishdir. Asar faqat va faqat badiiylikka asoslanishi lozim”<sup>14</sup>, – ekanligini ta’kidlaydi. Ko‘rinadiki, badiiylik bu doimo yangi narsa, yaratiq bo‘lib, u kitobxon uchun fikriy kenglik, erkinlik, dunyoni boshqacha kuzatish, anglash imkonini beradi.

Badiiylikning bosh mezonlaridan yana biri sifatida obrazlilik va uning so‘z orqali ifodalanishi ko‘rsatiladi. Darhaqiqat, obraz va obrazlilik badiiylikning o‘zak mohiyatini tashkil etadi. Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, “Badiiylikning mohiyati badiiy asarning mazmuniy jihatida yashiringan bo‘lib, uning ifodalanish yoki tasvirlanish tarzi va darajasi asarning shaklida mujassamlashgandir. Demak, badiiy asarning mazmuni hamda shakli badiiylikning ikki qanotidir”<sup>15</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, keyingi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarni saralash va ularning ijodiy jarayondagi o‘rnini belgilashda badiiylik tamoyillariga e’tibor ancha kuchayib bormoqda. Badiiylik ijodkorning voqelikni o‘ziga xos tarzda kashf etish, syujet tanlash, obraz yaratish, teran, original fikrlash kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bularning barchasi yozuvchining individual uslubida va iqtidorida namoyon bo‘ladi. “Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiyati o‘ziga xosligini, obrazlar sistemasini to‘g‘ri tushunmoq, tili jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo‘ladi. Chunki chinakam badiiy hodisa o‘zi aks ettirgan davrdan ham, o‘zi yaratilgan vaqtdan ham uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg‘unroq, konservativroq bo‘ladi”<sup>16</sup>.

Nasr poetikasi tahliliga to‘xtalganda, dastavval, o‘zbek hikoyachiligi borasida salmoqli tadqiqotlar qilinganligini ta’kidlash joiz. Hikoyachilik nasrning eng tezkor, keng yoyilgan janri sanalib, o‘zbek hikoyanavisligi tadrijida, XX asr boshida A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi adiblarimiz yaratgan asarlarda jadidchilik g‘oyalari, jaholat, ilmsizlik qoralanib, ma’rifatni ulug‘lash talqini ustuvorlik qilgan. Oybek, A.Qahhor, G‘.G‘ulom kabi yetuk nosirlar hikoyalarda o‘tmish mavzusi, zulm ko‘rgan oddiy insonlar, mehnatkashlarning ayanchli taqdirlari, xalq qismati jonli voqealar tasviri orqali yoritiladi. Ularning mahorati ham aynan ana shu jonli tasvirlarning badiiy talqinida ko‘rinadi. Xususan, A.Qahhorning “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Bemor” hikoyalari adib mahorati izlanishlar jarayonida, mashaqqatli ijodiy mehnat tufayli tiniqlik kasb etganidan dalolat beradi.

“O‘zbek nosirlarining asosiy qismi dolzarb mavzuni emas, o‘zini to‘lqinlantirgan, xayolotni bezovta qilgan insoniy taqdirlarni tasvirlamoqda. Bu bugungi o‘zbek nasri inson ko‘nglini, dardlarini, hayotiy tashvishlarini qalamga

<sup>13</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: “Фан”. 1-жилд. Б. 187.

<sup>14</sup> Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Тошкент: “Шарк”. 2007. Б.120.

<sup>15</sup> Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент. 2004. Б. 6.

<sup>16</sup> Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Тошкент: “ Янги аср авлоди”. 2006. Б.11.

olishga o'tganini anglatadi va bu estetik tamoyil adabiy mezonga aylanib borayotganligi quvonarlidir. Ilgarilari nosirlar uchun inson faoliyatining oqibati bo'lmish ulkan tarixiy hodisalar, salmoqli ijtimoiy voqealar tasviri muhim sanalgan bo'lsa, endi yozuvchilar voqea-hodisalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan, voqealarni harakatlantirgan, ulardan foyda topgan yoki jabr ko'rgan odamlar haqida qalam surmoqdalar. Bugungi o'zbek nasrida hodisa, ya'ni oqibatning o'rniga sabab, ya'ni odam ruhiyatining tasviri birinchi o'ringa chiqib bormoqda"<sup>17</sup>. Shu yo'nalishda ijod qilayotgan Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixon, Ulug'bek Hamdam kabi iste'dodli nosirlar o'z hikoyalarida oliy hilqat bo'lgan Inson va uning botiniy olami, hayot va umr mohiyati hamda "o'z-o'zini anglash yo'lida borayotgan qahramon ruhiyatini teran ko'rsatish" yo'lidan bordilar. Iste'dodli adiblardan biri Luqmon Bo'rixon ijodida ham bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. U "Qo'noq"<sup>18</sup> nomli hikoyasida inson va uning ruhiyati tasviri orqali adabiyotimizda burilish yasay olgan. Deyarli har bitta insonga xos ichki mahkumlik va bu narsa kimdadir oshkora bo'lsa, kimdadir pinhona bo'ladi. Eng yomoni – bunday mahkumlikdan holi odamlardan jamiyat xavfsiraydi, yotsiraydi, ba'zida tentakka chiqaradi. Albatta, bu holat jahon adiblari va faylasuflari tomonidan necha ming yillardan beri o'rganilib kelinayotgan umumbashariy hodisadir. Yozuvchi aynan shu muammoga munosabat bildirgan, ta'bir joiz bo'lsa, o'zbek nasrida "Qo'noq" hikoyasi orqali yangilik yarata olgan.

So'nggi yillarda o'zbek adabiyotida ro'y berayotgan yangi jarayonlar, xususan, hikoya, qissa, romanchilikdagi o'zgarishlar adabiyotshunos U.Normatov tadqiqotlarida keng yoritildi. Olimning "Nafosat gurunglari", "Umidbaxsh tamoyillar", "Ijod sehri" kabi qator kitoblarida adabiyotimizdagi mavzu va g'oya, badiiy mahorat va yozuvchi uslubi, obrazlar tizimi, an'anaviy va modernistik tasvir tamoyillari tahliliga keng o'rin berilgan.

Darhaqiqat, "bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda, birinchi galda, mavzu, muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e'tiborni tortadi: ular orasida ham an'anaviy romantik, realistik, ham modernistik yo'nalishdagi asarlarni ko'rish mumkin"<sup>19</sup>. Adabiyotshunos A.Ulug'ovning "Qissachiligimiz qirralari" monografiyasida qissaning janriy belgilari, o'zbek qissachiligining yutuq va muammolari, g'oyaviy-badiiy mundarijasidagi yangilanishlar, uslubiy turfaliklik masalalariga muayyan munosabat bildiriladi<sup>20</sup>.

XX asrning so'nggi choragida yaratilgan qissalarning taraqqiyot tamoyillari, adabiy-estetik tafakkur tadriji masalasi adabiyotshunos A.Xolmurodovning doktorlik dissertatsiyasida qamrovli tahlil qilinadi<sup>21</sup>. Adabiyotshunos M.Rustamova "Istiqlol davri o'zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari" nomli

<sup>17</sup> Ёўлдошев Қ. Дунё билан бўйлашиб // "Жаҳон адабиёти" журнали. 2007. 11-сон.

<sup>18</sup> Karimov B., Abdiyev H. XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi". 2016. B.550.

<sup>19</sup> Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma'naviyat, 2000. B.47

<sup>20</sup> Улуғов А. Қиссачилигимиз қирралари. – Т., 1991;

<sup>21</sup> Холмуродов А. Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари. Филол.фанл.докт.дисс. автореферати. –Т.2008.

tadqiqotida qissalardagi yangi qahramon yaratish, shaxs fojeasi talqini, uslub shakllari kabi xususiyatlarni E.A'zam, Sh.Bo'tayevning realistik, N.Eshonqul va Sh.Hamroning modernistik yo'nalishdagi asarlari misolida tadqiq etadi<sup>22</sup>.

Xullas, bugungi o'zbek nasrining barcha janrlarida poetik yangilanishlar, adabiy-estetik qarashlardagi yuksalishlar, oliy hilqat – Insonni kashf qilish, uni anglash yo'lida yaratilayotgan asarlarda ifoda yo'sinining betakror va jozibali bo'lishiga e'tibor qaratilayotir. Istiqlol davri nasri inson ichki dunyosini, ruhiy-psixologik olamini badiiy tadqiq qilish, realizm imkoniyatlaridan keng foydalanish, yozuvchi badiiy olamida poetik tasvir uslubining rang-barangligi va ifoda samimiyatiga erishish yo'lidan bormoqda.

Bobning ikkinchi fasli ***“Ijodkor mahoratini belgilovchi adabiy-estetik omillar”*** deb nomlanadi. Unda asosan ijodkor mahorati va uni belgilovchi omillar xususida so'z boradi. Ijodiy mahorat asar yashovchanligini, umriboqiyiligini ta'minlovchi asosiy mezon sanaladi. “Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan, chegarasiz jarayondir. Yozuvchi o'z ijodining ma'lum davrida usta san'atkor darajasiga ko'tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o'stirmasa – hayotdan va san'atdan o'rganishda davom etmasa u orqaga ketaveradi, o'quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o'rganish, kashf etish to'xtagan joyda talant kuchi, ta'siri susaya boshlaydi”<sup>23</sup>. Ayni shu sababli ham, ijodkor mahorati masalasi adabiyotshunoslikning doimiy o'rganiladigan muammolaridan biri sanaladi. Yozuvchi mahorati haqida so'z borganda, avvalo, adibning “nimalarni” tasvirlagani bilan bir qatorda, “qanday” tasvirlagani ham juda muhimdir. Shu bois badiiy asarda mazmun va shakl, mavzu va g'oya, asar kompozitsiyasi, badiiy til va so'z qo'llash, portret va peyzaj tasviri, xarakter va obraz yaratish mahorati tadqiq etilganda ularni qay darajada ifoda etilganligini o'rganish asosiy vazifalardan biridir. Demak, badiiy tafakkur ufqlari keng, katta hayotiy tajribaga ega mahoratli ijodkor yaratgan asarlarning umri boqiy bo'ladi. Shunday ekan, poetik yoki badiiy mahorat yozuvchining o'ziga xos badiiy olami, adabiy asarni yaratishdagi san'atkorligidir. “Ijodkorning badiiy mahorati asar tilining mohirona berilishida, obraz yaratishida, badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida, mohirona foydalanishida, asar kompozitsiyasini to'g'ri shakllantirishda va hokazolarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bulardan tashqari badiiylikning quyidagi 10 ta mezoni yozuvchining badiiy mahoratini aniqlashga yordam beradi:

1. Gumanizm (insonparvarlik).
2. Estetik tuyg'uni shakllantira olish.
3. Hayotiy haqiqatga sodiqlik.
4. Chuqur mushohada.
5. Muallif g'oyasining mantiqiyliги va ijodiy fantaziyasining kengligi.

<sup>22</sup> Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари. Филол. фанл. номз. дисс. автореферати. –Т., 2005.

<sup>23</sup> Умурув Х. Бадий иждод асослари. –Тошкент: “Ўзбекистон”. 2001. Б. 41.

6. Umumlashtirish va tipiklashtirish qobiliyati.
7. Badiiy detallarning aniqligi va qaysidir g'oyaga xizmat qilishi.
8. Syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat.
9. Qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berilishi.
10. Asar tilining boyligi va rang-barangligi”<sup>24</sup>.

Dissertatsiyada badiiylikning yuqoridagi o'nta mezonni ta'riflanib, mazmun-mohiyati ochib beriladi va bu mezonlarga Luqmon Bo'rixon ijodida qay darajada amal qilingani tahlilga tortiladi.

Ikkinchi bob **“Luqmon Bo'rixon hikoyalari poetikasi”** tadqiqiga bag'ishlangan. **“Adib hikoyalari uslubi va tagma'no qatlamlari”** tarzida nom olgan birinchi faslda yozuvchining hikoyachilikdagi o'ziga xos uslubi, ijodiy individualligi, hikoyalaridagi tagma'no xususida so'z yuritilgan.

Avvalo, “har bir yozuvchi o'z hayotiy tajribasiga suyanadi. Buning natijasida turli yozuvchilar hayotning turli (o'zlariga tanish bo'lgan) tomonlarini asarlarida in'ikos ettiradilar. Demak, turli yozuvchilar tomonidan yozilgan asarlar turlicha hayot materialini, turlicha kishilarni adabiyotga olib kiradi. Ikkinchidan, adabiyotning bosh vazifasi bo'lmish insonshunoslik, psixologik tasvir borasida ham yozuvchilarning qalami bir-biridan farq qiladi. Uchinchidan, yozuvchi uslubi (stili)ning shakllanishida uning qaysi tabaqa o'quvchilariga mo'ljallab yozishi juda katta ahamiyatga ega”<sup>25</sup>. Demak, yozuvchi badiiy uslubi muallif individualligining betakror ifodasi bo'lib, voqelikni o'ziga xos tarzda tadqiq qilish shakli sifatida uning o'ziga xos umumiy tomonlarini, shu bilan birga alohida jihatlarini ajratib ko'rsatib turadi.

Bugungi o'zbek nasrida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan yozuvchi Luqmon Bo'rixon badiiy ijod maydoniga hikoyanavis sifatida kirib keldi. Uning ijodida yangi davr kishisini badiiy kashf etishning o'ziga xos tamoyillari, an'anaviylik bilan novatorlikni uyg'unlashtirish, ijodiy individuallikka intilish yorqin ko'rina boshladi. Adibning dastlabki hikoyalar to'plami “Yalangoyoq” (1991) deb nomlangan bo'lib, ko'proq yoshlar, talabalar va ularning turfa sarguzashtlari, atrofimizdagi oddiy odamlarning turmush tarzi, orzu-o'ylari, intilishlari, hayot so'qmoqlarida duch kelgan sinovlaridan hikoya qiladi. “Uslub yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o'zligi. Uslub yozuvchi falsafasi in'ikosi”<sup>26</sup>. Shu bois, adib uslubi asarga o'ziga xos pafos baxsh eta olsa, asar o'zi mansub janrni har tomonlama mukammal bo'lishiga, janr esa metodni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yozuvchi ijodining dastlabki davrlarida, ya'ni o'tgan asrning 80-90-yillarida yozilgan “Kuz ertagi”, “Begimqul katta”, “Yalangoyoq”, “Dard”, “O'g'il”, “Donishmand”, “Qaydasan, muhabbat”, “Kechikkan ko'z yoshlar”, “Temir sandiq”, “Maktub” kabi bir qator hikoyalari uning uslubidagi o'ziga xoslikni belgilashda muhim o'rin tutadi. Luqmon Bo'rixon hikoyalari qahramonlari turfa voqealar fonida, mantiqiy izchillikdagi betakror va xilma-xil,

<sup>24</sup> Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. –Toshkent: “Akademnashr”. 2020. B. 41.

<sup>25</sup> Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: “Ўқитувчи”. 1986. Б. 401.

<sup>26</sup> Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: “Sharq”. 2007. B.70.

oddiy hayotiy voqealar tasviri orqali qalamga olinsa-da, ayni vaqtda, tagma'noda o'zida davr belgilarini, zamon dardlarini, yuksak insoniy his-tuyg'ularni aks ettirgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Zero, "Badiiy asarda inson vujudiga sig'mayotgan ruhiy po'rtanalar, toshqinlikni, ko'nglida tug'ilgan ezgu niyatlarni bayon etish uchun imkoniyat ko'proq bo'ladi"<sup>27</sup>. Luqmon Bo'rixon mavzu tanlashda jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi, insonlar orasidagi eng dolzarb muammolarni qalamga oladi. Yozuvchining qator hikoyalarida jamiyatni orqaga tortadigan eng yomon illatlardan biri – loqaydlik, beparvolik qoralanadi. Luqmon Bo'rixon uslubidagi poetik zanjir – badiiy-mantiqiy izchillik omillari uning hikoyalarini bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Adibning "O'g'il" (1985), "Sinov muddati" (1991) hikoyalarida bir-biriga juda yaqin bo'lgan holat tasvir etilsa-da, inson loqaydligi, beparvoligi qanday oqibatga olib kelishi alohida obrazlar – Panjiyev ("O'g'il"), Jasur ("Sinov muddati") xarakteri orqali chuqur ochib beriladi. Hikoyalarning tagma'nosida yuksak insoniy tuyg'ular, hayotda yuz bergan voqealarni tasvirlashdan ko'ra insonlararo munosabatlarni aks ettirishga ko'proq ahamiyat qaratiladi. Zero, "badiiy asarning matn yuzida ko'rinib turgan holat, maqsadlari bilan bir qatorda undan tashqari, shu matn zamirida ochiq namoyon bo'lib turmagan, lekin yozuvchining badiiy niyatlarini aks ettirishda muhim rol o'ynovchi xususiyatlar ham shubhasiz bo'ladiki, ana shu jihatlarni, muallifning asl maqsadlaridan ko'p ham uzoqlashtirmagan ravishda aniqlash va ilmiy dalillangan suratda yoritish, bir jihatdan, yozuvchi mahoratini ko'rsatish, ikkinchi bir jihatdan, asarning asl qimmatini anglash va his etishda alohida o'rin tutadi"<sup>28</sup>.

Luqmon Bo'rixon va Normurod Norqobilovning bir xil sarlavhali "Sut sotuvchi bola" hikoyasi qiyosi orqali ijodkor uslubining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Zero, "uslubda ularni bir-biridan ajratib turadigan tomonlar: uning shaxsiy tajribasi, iste'dodi, nutq ohangi va hokazolar ko'zga tashlanadi"<sup>29</sup>. Bu jarayonda har bir ijodkorning shaxsiy mayli, iqtidori, adabiy tur va janrlarda o'z salohiyatini namoyish eta bilish darajasi oydinlashib, asarning muayyan metodga mansubligi yuzaga keladi. Sarlavhasi bir xil ikki hikoya chindan ham bir-biriga ancha o'xshaydi. Janr nuqtayi nazaridan ham bir xil. Bir mavzu, deyarli bir davr tasvirlangan. Ikki asarning markazida ham yosh, hali voyaga yetmagan bola obrazi turadi. Qizig'i, ikkalasida ham bola asosiy obraz, shahar uylari (dom) oldida sut sotib tirikchilik qilishadi.

Luqmon Bo'rixon qahramon tasviri, ruhiyati, xarakterini ifoda qilishdan ko'ra, u bilan bog'liq voqealarga to'xtaladi. Shu orqali badiiy xarakterini ochib beradi. N.Norqobilov asarda syujet ketma-ketligi, obrazlar tasviriga, qahramon ruhiyati, uning ichki kechinmalari, orzu-o'ylarini aks ettirishga harakat qilgan.

Luqmon Bo'rixon ijodiga xos yana bir xususiyat ifodada alliteratsiyadan chiroyli va juda unumli tarzda foydalana bilishida ko'rinadi. Adibning "Tokchadagi tumor" hikoyasida "*Tomoshatalablar to'pida toyranglab turgan kengsoylik To'lqin*", "*tilsimli totli tuyg'ular taloshida tebranib...*", "*jonivori*

<sup>27</sup> Каримов Б. Рухият алифбоси. –Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2016. Б.5.

<sup>28</sup> Назаров Б. Ижоднинг жон томири. – Тошкент: "Tafakkur tomchilari". 2022. Б. 314.

<sup>29</sup> Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: "Шарқ". 2007. Б. 217

*jonlanib jahongashta fermer jahl otiga minib*”, “*Quvvati qurib qo‘nalg‘asiga qo‘nayotgan quyosh*” kabi o‘ynoqi ohanglar yaratgan bo‘lsa, “*Temir sandiq*” hikoyasida “*Saharning shaffof shabnamlari shimirib, atrofga muattar islar sochayotgan o‘t-o‘lanlar oralab toychoqdek shataloq otging, ma‘sumgina moviy osmonga qarab shodon hayqirging kelib ketdi*” yoki “*...shamollarning yalmog‘izdek yalashlaridan yag‘ir yag‘rinday yallig‘lanib ketgan tepalik yon bag‘rida ajabtovur sandiq tashlandiq bo‘lib yotardi*”, deya tabiat manzarasini tovushlar uyg‘unligida mohirona tarzda chizadi. Bu adib uslubidagi boshqa ijodkorlarda kuzatilmaydigan o‘ziga xos go‘zal bir xususiyatdir.

Tadqiqotning ikkinchi bobining “***Yozuvchi hikoyalarda obraz va obrazlilik***” sarlavhali navbatdagi faslida badiiylikning asl mohiyati obraz va obrazlilik ekanligi yozuvchi hikoyalari misolida tahlilga tortilgan.

Ma‘lumki, badiiylikning asl mohiyatini obraz va obrazlilik belgilaydi. Obrazlilik badiiy tafakkurning asosiy xususiyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot, inson turmush tarzi, umuman, jamiyatda kechayotgan jarayonlar, estetik qarashlar bilan bog‘liq kategoriyadir. “Obraz esa borliqni, inson ruhiyatini muayyan shakllarda tasvirlash va ifodalashdan iborat”<sup>30</sup>. Obraz va obrazlilikning eng muhim xususiyatlari, mohiyati chinakam badiiy asarlarda namoyon bo‘ladi. Demakki, har qanday badiiy asarda ijodkorning tafakkur tarzi, fikrlash yo‘sini, estetik ideali, bir so‘z bilan aytganda, muallif konsepsiyasi aks etadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, muallif konsepsiyasining tayanch nuqtasi asarda aks etgan obrazlar tizimi orqali amalga oshadi. Obraz badiiy asarning jon tomiri, o‘q ildizi sanaladi. Obraz “adabiyot va san‘atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasidir”<sup>31</sup>.

Tadqiqotchi O‘.Ro‘ziyevaning “*Luqmon Bo‘rixon asarlarida sayyor obrazlar*” maqolasida adib uslubidagi o‘zigagina xos bo‘lgan jihatni tahlilga tortadi, ya‘ni yozuvchi nasrida bir asarida epizodik planda bo‘lgan obraz, ikkinchi bir asarida bosh obraz sifatida tasvirlanadi. “Obrazlarning ko‘chib yurishini jahon adabiyotida Balzakda kuzatish mumkin, uning Gobsek, Gorio ota, Rostinyak, Nusingen kabi obrazlari bir asariga bosh obraz bo‘lsa, boshqa asarlarida ham personaj sifatida tilga olinadi. O‘zbek adabiyotida birgina Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasini misol keltirish bilan cheklanamiz. Ikromjon, Nizomjon, Dildor, Azizxon kabi obrazlar trilogiya ichida aylanib yuraveradi. L.Bo‘rixon asarlarida vaziyat biroz boshqacha: romandagi biror obraz boshqa bir hikoyaga yoki qissaga ko‘chib o‘tadi. O‘zbek adabiyotida bunday holni faqat shu yozuvchida uchratish mumkin”<sup>32</sup>. Darhaqiqat, Luqmon Bo‘rixonning obraz yaratish mahorati o‘ziga xos bo‘lib, adib asarlaridagi ba‘zi obrazlardan voz kechmaydi, ularni hikoyadan qissaga, romanga ko‘chirib yuradi. Bir asarida qahramonning bolaligi, o‘smirligi tasvirlansa, yana birida katta yosh davri beriladi. Jumladan, Samad (“Cho‘ldan kelgan tashvish”, “Jaziramadagi odamlar”), Mohigul (“Sirli muallim”, “Jaziramadagi odamlar”), Ulash agronom (“Cho‘ldan kelgan tashvish”, “Xizr

<sup>30</sup> Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент. 2004. Б. 21.

<sup>31</sup> Quronov D., Mамажонов Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Тошкент: “Akademnashr”. 2013. B.43.

<sup>32</sup> Рўзиева Ў. Луқмон Бўрихон асарларида сайёр образлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021. 2-сон. Б.44.

ko‘rgan yigit”), To‘lqin (“Tokchadagi tumor”, “Jaziramadagi odamlar”) kabi qator obrazlar adib asarlarida kezib yuruvchi sayyor obrazlardir.

Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida rang-barang obrazlar yaratiladi. Adib hikoyalarida ko‘p uchraydigan obrazlarni nisbiy holda quyidagicha tasniflash mumkin: 1) yoshlar, talabalar obrazi; 2) o‘qituvchi-ziyolilar obrazi; 3) atrofimizdagi oddiy insonlar obrazi.

Adib obraz yaratishda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratadi:

a) adib yaratgan barcha obrazlarda hayotiylik tamoyillari ustuvor bo‘lib, ularning deyarli ko‘pchiligi asardan asarga ko‘chib yuradi;

b) yozuvchi o‘zi fosh qilayotgan (salbiy) obrazlarning qilmishini quruq so‘zda bayon qilmaydi, balki jonli tasvirlar, badiiy lavhalarda ko‘rsatadi;

v) Luqmon Bo‘rixon yaratgan obrazlarda muhim insoniy qadriyatlarga urg‘u beriladi, mardlik, tantilik, saxovatpeshalik kabi yuksak tuyg‘ular ulug‘lanadi.

g) adib yaratgan ba‘zi obrazlar nomlarida ramziylik juda kuchli (Zamonqul (“Bekadagi qiz”), Qo‘noq (“Qo‘noq”), Begimqul (“Begimqul katta”), Nazokat (“Ko‘ngil sezib turibdi”) va boshqalar).

e) yozuvchi hikoyalarida obrazlar xarakterini ochishda ularga nisbatan so‘z o‘yinini mahorat bilan qo‘llaydi. (Toshtemir “menedjer” (meni yeydi) ma’nosida ishlatilgan).

Yuqoridagi holatlar dissertatsiyada ko‘plagan aniq misollar yordamida ochib beriladi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Hikoyalarda qahramon ruhiyatining badiiy talqini”** tarzida nomlangan.

“Inson ruhiy dunyosining adabiyotdagi tasviri, ifodasi qonuniyatlarini tekshirish bugunning dolzarb ilmiy-estetik muammosi hisoblanadi. Kuzatishlar ko‘rsatdiki, inson ruhiyati, ichki olamidagi o‘ziga xoslik hamisha ham tashqi dunyoga bog‘liq bo‘lavermaydi. Inson ko‘nglida kechayotgan hissiyotlar, orzu-maqсадlar, intilishlar atrofidagi muhitga kamdan kam holatlarda to‘g‘ri keladi. To‘g‘ri, inson ruhiyatidagi tadrijiylik tashqi muhit vositasida yuz beradi. Odamning ruhiy tushkunligi ham, ko‘tarinkiligi ham ijtimoiy muhit ta’sirida yuzaga keladi. Ko‘pincha insonning o‘zi o‘z ruhiy holatini to‘g‘ri tushunish yoki izohlashga ojizlik qiladi”<sup>33</sup>. Shu bois buyuk yaratiq – insonni tushunish, uni o‘rganish uchun ham keyingi yillarda badiiy asarlarda botiniy olam – ruhiyat tasviri talqinlariga keng urg‘u berilmoqda.

Luqmon Bo‘rixon qissa va hikoyalarida ham insonning mehnati, xatti-harakatlari tasviridan ko‘ra, uning qalb kechinmalari, ko‘ngil tovlanishlari, ruhiy holatlari ifodasini aks ettirishga intilish kuchli. Uning asarlarida qahramonlar ruhiyati ifodasi tabiat tasviri, atrof-muhitda yuz berayotgan voqea-hodisalarga uyg‘un tarzda yoritiladi. Adib o‘z hikoyalarida bir-birini takrorlamaydigan obrazlar

---

<sup>33</sup> Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари. Филол. фанл. номз. дисс. автореферати. 2008. Б. 9.

yaratishni maqsad qiladi. Ana shunday asarlardan biri uning “Bekatlardagi qiz” hikoyasidir. Ushbu hikoyada ma’lum jamiyatdagi ishchilar sinfi vakillarining kundalik turmush tarzi avtobusdagi bekatlararo qisqa safar jarayonida aks ettiriladi. Asarning bosh obrazlari oddiy ishchi Zamonqul va bekatda avtobusga chiqqan noma’lum go’zal qiz.

Shuningdek, hikoyada ismlari qayd etilmagan boshqa qator qahramonlarning ruhiyatiga ham chizgilar beriladi. Bosh obraz sifatida gavalantirilgan Zamonqul – shahar chekkasidagi katta bir zavodning kichik bir ishchisi, barcha ishchilar qatori har kuni avtobusda zavodga qatnaydigan oddiy inson. Ammo muallif unga xos xususiyatlarni ifodalash jarayonida Zamonqul ruhiyatidagi o’zgarishlarga diqqatini qaratadi. Bosh qahramon tuppa-tuzuk ishchi bo’lishiga qaramasdan, so’nggi kunlarda uning tabiatida bir qator o’zgarishlar yuzaga kelmoqda. Tajanglik va qo’rslik doimiy odatiga aylanib boryapti. Anchadan beri nimanidir intiq izlayotgan va ilhaq kutayotganday sarosimada yashayapti. Tushunib bo’lmas qo’msash azobi uning ichini kemirib bormoqda. Undagi bu o’zgarishlarni, avvalo, xotini payqaydi. Biroq hech kim Zamonqulning bu holatiga jiddiy e’tibor qaratmaydi. Shu bois, u o’zini tamomila keraksizday his qiladi.

Ushbu hikoyada muallif kundalik turmush tarzimizda doimiy ravishda uchraydigan voqealar tasvirini aks ettiradi. Hikoyada keltirilgan obrazlarning bir-biri bilan mutanosibligi asarni mutolaa qilish jarayonida kitobxonning diqqatini o’ziga jalb qiladi. Hikoya voqealarning keskin o’zgarishiga asoslanmagan bo’lsa-da, asar qahramonlari ruhiyatida yuzaga kelayotgan turfa o’zgarishlar hikoya mohiyatining keng yoritilishiga xizmat qiladi.

Luqmon Bo’rixon o’z hikoyalarida, asosan, real hayotda mavjud voqealarni aks ettirishga harakat qiladi. Shuningdek, uning asarlarida inson kechinmalarining tasviri, shaxs psixologiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Albatta, inson ichki olamini tushunish, his qilish va uni badiiy talqin qilish nihoyatda mushkul vazifadir. Zero, “Dunyodagi eng qiyin va mashaqqatli ish fikr, tuyg’u va tushunchalarning tabiiy ifodasini topmoq, inson botinida mavjud ming bir kayfiyat, holat va hislarni moddiylashtirmoqdir. Hisni so’zga aylantirish nechog’lik qiyin bo’lsa, ruhiy hayot manzaralarini fikrda gavalantirib berish undan ham mushkul”<sup>34</sup>.

Ushbu faslda adibning bir qancha hikoyalari asosida qahramonlar ruhiyati talqini masalasi ochib beriladi.

Uchinchi bob “**Luqmon Bo’rixon qissalari badiiyati**” deb nomlanadi va ikki faslni o’z ichiga oladi. Ilk fasli “**Adib qissalarining uslubiy-kompozitsion xususiyatlari**”da zamonaviy qissachilikning ifoda tarzi jahon adabiyotining ilg’or an’analari va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirishi natijasida o’zgacha uslubiy-kompozitsion xususiyatlarning namoyon bo’lishi Luqmon Bo’rixon qissalari misolida konkretlashganligi tadqiq etilgan. Ayniqsa, yozuvchining qissalarida inson shaxsiga yangicha yondashuv kuchliligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, ularda azaliy mavzularni yangi jihatlardan yoritishga intilish, qahramonlar ichki dunyosining sirli va mubham qirralarini ruhiyat tahlili

<sup>34</sup> Хаққулов И. Мушоҳада ёғдуси. –Тошкент: “Фан”. 2009. Б. 172.

yordamida ochib berish ustuvorlik qiladi. Luqmon Bo‘rixonning “Sirli muallim”, “Xizr ko‘rgan yigit”, “Bir tomchi yosh”, “Quyosh hali botmagan”, “Olis qo‘rg‘on fuqarosi” kabi qissalari zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Adib qissalari uslubiy-kompozitsion jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, obraz yaratish, voqealarni tasvirlash, badiiy asar tili nuqtayi nazaridan betakror va xilma-xildir. Yozuvchi ijodini kuzatish, xususan, hikoya va qissalarini tahlil etish va o‘rganish shundan dalolat beradiki, muallif hayotdagi voqea-hodisalarni badiiy haqiqatga aylantirishda, xarakter yaratishda, asosan, ruhiy kechinmalar tasviriga katta e‘tibor qaratadi.

Yozuvchining “Sirli muallim” (2006) qissasi kompozitsiyasi xarakterli bo‘lib, olti nafar qahramonning tushuntirish xatlari orqali voqealar bayon qilinadi. Asarning boshlanma – tushuntirish qismi esa roviy-qahramon – jurnalist yigit tilidan hikoya qilinib, qissa voqealari markazida diplomsiz muallim Najot G‘aybulla taqdiri yotadi. Yozuvchining mahorati shundaki, ovloq bir qishloqdagi maktabning ustoz-muallimlari taqdiri, hayotini tasvirlash orqali butun bir jamiyat, insoniyatga dunyoni ilm-u ma‘rifat qutqarishini, ilmsizlik va nafs balosi nimalarga olib kelishini yorqin hayotiy misollar orqali ko‘rsatadi. “Bugungi davr zamonaviy o‘zbek adabiyotida L.Bo‘rixonning “Sirli muallim” asarichalik o‘qituvchilikning og‘ir-u yengil tomonlarini, zahmati-yu qiyinchiliklarini, ishdagi qog‘ozbozliklarni, qolaversa, o‘qituvchidagi kamchiliklarni to‘liq, boricha qalamga olgan birorta ijodkor, biror asar yo‘q, nazarimizda. Bu asarda u o‘ziga xos usuldan foydalanib tushuntirish xatlari vositasida olti nafar hikoyachi-muallif tilidan syujet chizig‘ini yaratadi. Qorako‘z o‘quvchilarsiz hayotini tasavvur qila olmaydigan diplomsiz o‘qituvchi Najot G‘aybulla haqida oltita guvoh (beshtasi o‘qituvchi, bittasi agronom) oltita tushuntirish xati yozadi va muallif ovozlar ansamblini, simfoniyasini yaratadi”<sup>35</sup>. “Sirli muallim” qissasiga ayni mana shu tuzilish (kompozitsiya) juda mos kelgan, tushuntirish xatlari orqali har bir qahramonning o‘ziga xos xarakteri, obraz qiyofasi, fe‘l-atvori ochilib, kitobxon ko‘z o‘ngida jonli tasvirlar, tez-tez atrofimizda uchrab turadigan jiddiy muammolar namoyon bo‘la boradi. Shuningdek, ushbu faslda yozuvchining yana bir qancha qissalarining uslubiy-kompozitsion xususiyatlari ochib berilgan.

***“Yozuvchi qissalari takomilida badiiy tasvir vositalarining o‘rni”*** deya nomlangan ikkinchi faslda adib qissalarida badiiy tasvir vositalarini qo‘llay olish mahorati haqida so‘z yuritilgan.

“Iste‘dodli yozuvchi hamisha davr bilan hamnafas bo‘ladi, o‘zgarishlar mohiyatini ziyraklik bilan anglaydi va unga o‘z munosabatini bildiradi. Mana shu tariqa tug‘ilgan asar o‘qishli va ta‘sirli hamda jozibador bo‘ladi. Chunki bunday asarlarda davr ziddiyati ochib berilgan bo‘ladi”<sup>36</sup>. Buni muallif qalamiga mansub “Quyosh hali botmagan” qissasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Qissada yoshlarning turfa xil sarguzashtlari, hayot so‘qmoqlarida duch kelgan sinov va

<sup>35</sup> Рўзиева Ў. Луқмон Бўрихон асарларида сайёр образлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021. № 2. 46 -бет.

<sup>36</sup> Каримов Х. Адабий портретлар. –Тошкент: “Yangi nashr”. 2017. Б.48.

mashaqqatlari, jasorat, mardlik, muhabbat, g'urur kabi chin insoniy qadriyatlar, o'ziga xos milliy xarakter va obrazlar misolida ochib berilgan.

Asarda tasvirlangan davr, voqea-hodisalar qaysidir ma'noda yozuvchi hayoti bilan bevosita bog'liqdek taassurot qoldiradi. Boisi, o'zi yashayotgan muhit va o'sha yerning tabiati, urf-odatlari, tevarak-atrofidagi odamlar hayoti, haqiqiy sodda va tanti o'zbek xalqiga xos bo'lgan qirralarni aniq tasvirlaganki, har bir obrazning xarakteri, qahramon nutqi, so'z qo'llash mahorati kabilar muallifning so'z boyligidan, o'z urf-odatlarini yetarli darajada bilishi va badiiy kamolotidan dalolat beradi.

Qissa *“Biz hali Absal polvonni tanimas edik”* tarzida ibtido oladi va ushbu jumla asar davomida o'n sakkiz joyida turli o'zgarishga uchragan holda qo'llaniladi. Ya'ni voqealar tadriji davomida *“Biz Absal polvonni tanidik”*, *“Biz Absal polvonni tanidik, bildik”*, *“Biz Absal polvondan uzoqlashgan edik”*, *“Biz Absal polvonni unutdik”*, *“Biz Absal polvonni unutgan edik”*, *“Biz Absal polvonni mangu yo'qotib qo'ydik”* va asar xotimasida *“Biz Absal polvonni yana qayta topib olgan edik”* tarzida keladi. Bu jumlar hayot sinovlarida toblanib, turli topishish va yo'qotishlar, yuksalish va ortga ketishlar, oxir-oqibatda esa qahramonlarning o'z-o'zini anglashi, o'zligini topishigacha bo'lgan voqea-hodisalarni o'zida jamlagan. *“Dunyoning adolati shundaki, odam atrofidan o'zi qidirgan, ko'rishni izlagan narsani topadi va ko'radi. Olamda barchaga mutlaqo birday ta'sir ko'rsatadigan narsa-hodisaning o'zi yo'q”*<sup>37</sup>.

Qissada yozuvchining badiiy tasvir vositalarini inson ruhiyatini ochish asnosida mahorat bilan qo'llashi yozuvchining yuksak badiiy quvvatini anglatadi. Qissada peyzaj tasvirlarini chizishda qahramon ruhiyati bilan uyg'unlikda tasvirlashi deyarli barcha o'rinlarida uchraydi. Jumladan, Norsoatning ishqdan ozor chekib, rashk azobida o'rtanib yurganida ko'ziga qishloq kechasi: *“Qop-qora osmon toqida to'lin oy o'ychan va xomush salqin epkinidan dov-daraxtlarning qovjiroq barglari xazin shitirlar, oyning zardoxtus yog'dulariga burkanib yotgan ko'cha-ko'y, ekinzorlar xorg'in va parishon mudrar edi”* tarzida yoki vijdon azobida o'rtanayotgan, o'z qilgan ishidan uyat hissini tuygan yigit nazdida oyning holati *“Men ko'zlarimni ko'kka opqochdim. Miltillagan yulduzlar go'yo hurkib, uyalib g'uj-g'uj to'planib olgandek edi. Sap-sariq to'lin oy battar sarg'ayib, so'lib behol bo'zarib turardi”* ko'rinishida tasvirlanadi. Yozuvchining badiiy mahorati obraz kayfiyati bilan tabiatni uyg'unlikda ko'rsata bilishida namoyon bo'ladi.

Adib qalamga olayotgan mavzuni to'laligicha tahlil qiladi, har bir obrazni yaratishda bor mahoratini ishga soladi. Bu jarayonda yozuvchi nimalarga qodirligi, salohiyati namoyon bo'ladi. Ayni paytda asardagi har bir voqea, tasvir, xarakter, badiiy obraz yozuvchi dunyoqarashidan kelib chiqadi. Yozuvchi mahorati asarning badiiyligini, inson xarakterini yaratish san'ati uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Shuningdek, ushbu faslda adib qissalaridagi badiiy tasvir vositalaridan foydalanish darajasi *“Bir tomchi yosh”* qissasi misolida ham tadqiq etilgan.

---

<sup>37</sup> Йўлдош Қ. Очқич сўз. –Тошкент: “Тафаккур”, 2019. Б. 429.

## XULOSA

Dissertatsiyaning boblarida bildirilgan nazariy qarashlar asosida yigirma banddan iborat xulosaga kelindi. Biz quyida ana shu xulosalarning ba'zilariga to'xtalamiz:

1. Har qanday adibning milliy badiiy tafakkur tadrijida tutgan o'rnini aniqlashda uning poetik mahorat qirralarini o'rganish, tadqiq qilish nihoyatda zarur. Badiiy mahorat yozuvchining o'ziga xos poetik olami, adabiy asarni yaratishdagi san'atkorligidir. Ijodkorning badiiy mahorati asar tilining mohirona berilishida, obraz yaratishida, badiiy tasvir vositalaridan o'z o'rnida foydalanishida, asar kompozitsiyasini to'g'ri shakllantirishda va hokazolarda yaqqol namoyon bo'ladi.

2. So'nggi yillar nasrida, ayniqsa, uslub va ijodiy individuallik, shakliy-uslubiy izlanishlar, yozuvchi badiiy mahorati masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Badiiy uslub har bir muallifning ijod dunyosida o'ziga xos ravishda namoyon bo'lib, badiiy obraz tarzida kitobxon qalbiga kirib boradi va shu obrazlar orqali o'quvchi yangi bir ijodkorni taniydi, kashf etadi.

3. Zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos o'ringa ega ijodkorlardan biri Luqmon Bo'rixon ijodining dastlabki davrlarida, ya'ni o'tgan asrning 80-90-yillarida "Kuz ertagi", "Begimqul katta", "Yalangoyoq", "Dard", "O'g'il", "Donishmand", "Qaydasan, muhabbat", "Kechikkan ko'z yoshlar", "Temir sandiq", "Maktub" kabi hikoyalarni yaratdi. Bu hikoyalar uning uslubidagi o'ziga xoslikni belgilashda muhim o'rin tutadi. Luqmon Bo'rixon hikoyalari qahramonlari turfa voqealar fonida, mantiqiy izchillik asosidagi betakror va xilma-xil, oddiy hayotiy voqealar tasviri orqali namoyon bo'lsa-da, ayni vaqtda tagma'noda o'zida davr belgilarini, zamon dardlarini, yuksak insoniy his-tuyg'ularni aks ettirgan shaxslar sifatida gavdalantiriladi.

4. Adibning "O'g'il" (1985), "Sinov muddati" (1991) hikoyalarida bir-biriga juda yaqin bo'lgan holat tasvir etilsa-da, inson loqaydligi, beparvoligi qanday oqibatga olib kelishi alohida obrazlar – Panjiyev ("O'g'il"), Jasur ("Sinov muddati") xarakteri orqali chuqur ochib beriladi. Hikoyalarning tagma'nosida yuksak insoniy tuyg'ular, hayotda yuz bergan voqealarni tasvirlash bilan birga insonlararo munosabatlarni aks ettirishga ko'proq ahamiyat qaratiladi.

5. Tadqiqotda Luqmon Bo'rixon va Normurod Norqobilovning bir xil sarlavhali – "Sut sotuvchi bola" hikoyalari o'zaro qiyoslanib, har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi, ifoda tarzi, obraz yaratishdagi mahorati, badiiy til xususiyatlaridan foydalanishdagi o'ziga xosliklari taqqoslandi. Har ikkala hikoyada xalqimizning qo'shnilariga, yaqinlarga ilohiy ne'mat – sut ulashishi, yaxshi hamsoyachilik, mehr-oqibat kabi azaliy qadriyatlarini ulug'lanadi, bu esa o'quvchi qalbida ularni e'zozlash va mazmunan boyitish tuyg'usini kuchaytiradi. Xullas, ikkala ijodkor bu hikoyasi orqali kitobxonni falsafiy mushohadaga chorlayotgani aniq. Undagi teran ma'noni anglash va his qilish hikoyalarning nechog'lik estetik ahamiyatga egaligini isbotlaydi.

6. Luqmon Bo‘rixon nasrida uning o‘zigagina xos bo‘lgan uslubini yarq etib ko‘rsatib turuvchi jihatlardan biri uning sayqallangan, jozibali badiiy tilidir. Adibning “Maktub”, “Temir sandiq”, “Tokchadagi tumor”, “Cho‘ldan kelgan tashvish”, “Tun qa‘ridagi shu‘la” kabi qator hikoyalarida so‘zlarni injudek terishi, badiiy tasvir vositalaridan chiroyli foydalanishi asar jozibasini yanada oshirishga xizmat qilgan.

7. Luqmon Bo‘rixon tilidagi yana bir xususiyat, so‘zlarda alliteratsiyadan chiroyli va juda unumli tarzda foydalana bilishida ko‘rinadi. Adibning “Tokchadagi tumor ” hikoyasida “Tomoshatalablar to‘pida toyranglab turgan kengsoylik To‘lqin”, “tilsimli totli tuyg‘ular taloshida tebranib..”, “jonivori jonlanib jahongashta fermer jahl otiga minib”, “Quvvati qurib qo‘nalg‘asiga qo‘nayotgan quyosh” kabi o‘ynoqi ohanglar yaratgan bo‘lsa, “Temir sandiq” hikoyasida “Saharning shaffof shabnamlari shimirib, atrofga muattar islar sochayotgan o‘t-o‘lanlar oralab toychoqdek shataloq otging, ma’sumgina moviy osmonga qarab shodon hayqirging kelib ketdi” yoki “...shamollarning yalmog‘izdek yalashlaridan yag‘ir yag‘rinday yallig‘lanib ketgan tepalik yon bag‘rida ajabtovur sandiq tashlandiq bo‘lib yotardi”, deya tabiat manzarasini tovushlar uyg‘unligida mohirona tarzda chizadi. Bu adib uslubidagi boshqa ijodkorlarda kuzatilmaydigan o‘ziga xos go‘zal bir xususiyatidir.

8. Luqmon Bo‘rixonning obraz yaratish mahorati o‘ziga xos bo‘lib, adib asarlaridagi ba‘zi obrazlardan voz kechmaydi, ularni hikoyadan qissaga, romanga ko‘chirib yuradi. Bir asarida qahramonning bolaligi, o‘smirligi tasvirlansa, yana birida katta yosh davri beriladi. Jumladan, Samad (“Cho‘ldan kelgan tashvish”, “Jaziramadagi odamlar”), Mohigul (“Sirli muallim”, “Jaziramadagi odamlar”), Ulash agronom (“Cho‘ldan kelgan tashvish”, “Xizr ko‘rgan yigit”), To‘lqin (“Tokchadagi tumor”, “Jaziramadagi odamlar”) kabi qator obrazlar adib asarlarida kezib yuruvchi sayyor obrazlardir. Shuningdek, u yaratgan ba‘zi obrazlarda ramziylik kuchli (Zamonqul, Najot G‘aybullay, Qalqonov, Qo‘noq, Begimqul, Bekqul To‘raqulovich, Nazokat va boshqalar).

9. Yozuvchi o‘z qahramonlarini tasvirlashda xolis, hayotiy, jonli odam sifatida ifodalash mahoratini puxta o‘zlashtirgan, ya‘ni muallif asarlarini xayoliy uydirmalarga emas, hayotiy, real voqealar asosiga quradi. O‘zining asar yakunida nima demoqchi ekanligini ham ochiq bayon etmaydi, falsafiy-estetik xulosalarini, mushohadaga chorlaydigan yakuniy fikrni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Ularning qanday odam ekanligini aksariyat hollarda zohiriy jihatdan emas, botiniy tarafdin yoritadi, obrazlarning ichki po‘rtanasida namoyon qiladi. Qahramonlarning ruhiy olamini muhit, davr bilan uyg‘unlikda katta falsafiy mushohada asosida teran tahlil qiladi, tasvir ruhiyatini ifoda mustaqilligiga yo‘naltiradi.

10. Luqmon Bo‘rixon ijodida ham qissa janri o‘ziga xos o‘ringa ega. Adibning “Xizr ko‘rgan yigit”, “Bir tomchi yosh”, “Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi”, “Quyosh hali botmagan” kabi qissalari kitobxonlar e‘tiborini qozondi. Uning “Xizr ko‘rgan yigit” qissasida qahramon turli vaziyat hamda jug‘rofiy sharoitlarda o‘zligini namoyon etish, asar syujetidagi voqealar tizimini yuzaga chiqarishda hayotiy ziddiyatlar, inson qalbidagi iztiroblar yetakchilik qilsa,

“Ayol ko‘z yoshlarga ishonmaydi” qissasida esa sarguzasht xarakter ustuvorlik qiladi. Yozuvchi qissalariga xos umumiy xususiyat esa o‘z davri qahramonlarining milliy qiyofasini o‘zbek nasri an‘analari va jahon adabiyoti tajribalarini omuxtalashtirgan holda badiiy talqin qilishida ko‘rinadi.

11. Adib qissalari uslubiy-kompozitsion jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, obraz yaratish, voqealarni tasvirlash, badiiy asar tili nuqtayi nazaridan betakror va xilma-xildir. Yozuvchi ijodini kuzatish, xususan, hikoya va qissalarini tahlil etish va o‘rganish shundan dalolat beradiki, muallif hayotdagi voqea-hodisalarni badiiy haqiqatga aylantirishda, xarakter yaratishda, asosan, ruhiy kechinmalar tasviriga katta e‘tibor qaratadi.

12. Luqmon Bo‘rixonning o‘ziga xos kompozitsion qurilishga ega “Sirli muallim” qissasi o‘qituvchilar hayoti haqida bo‘lib, o‘qituvchilikning og‘ir-u yengil tomonlarini, zahmati-yu qiyinchiliklarini, ishdagi qog‘ozbozliklarni ro‘y-rost badiiy ifoda qiladi. O‘z hayotini o‘quvchilarsiz tasavvur qila olmaydigan diplomsiz o‘qituvchi Najot G‘aybulla haqida oltita guvoh tomonidan yozilgan (beshtasi o‘qituvchi, bittasi agronom) tushuntirish xatlari asosiga qurilgan asarda muallif mahorat bilan davr muammolarini badiiy ifodalay oladi.

13. “Chorbog‘ qo‘riqchisi yoxud Xizr ko‘rgan yigit” qissasida muallif asarda or-nomus, mardlik va jasorat kabi yuksak insoniy tuyg‘ularni, sof milliy qadriyatlarni qalamga oladi. O‘lis bir qishloqda tug‘ilib o‘sgan sodda, to‘pori va shu bilan birga polvon yigit Qorjov taqdiri misolida muallif hayot ziddiyatlari va inson qiyofasini hayotiy, tabiiy talqin qiladi.

14. “Quyosh hali botmagan” qissasida esa Luqmon Bo‘rixon Absal polvon, Norsoat, Davron, Tanzilla kabi obrazlar orqali Insonni boricha, iqtidor-u kamchiliklari, orzu-xayollari bilan tasvirlaydi, adib qissalarida voqea-hodisa tasviridan ko‘ra ko‘proq ruhiyat ifodasiga e‘tibor qaratadi. Yozuvchi badiiy mahorati qahramon ruhiyatidagi eng nozik va chigal o‘zgarishlarni o‘ziga xos uslub, kompozitsion vositalar orqali ko‘rsata bilganligi bilan ajralib turadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, bugungi o‘zbek nasrida Luqmon Bo‘rixon ijodi o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning betakror ifoda uslubi, xarakter yaratishdagi mahorati, nasr poetikasidagi o‘ziga xoslik, obrazlar tasviridagi hayotiylik va inson ruhiy holatini tasvirlashda estetik mezonlar ustuvorlik qilishi yozuvchi ijodiga xos xususiyatlardir. Luqmon Bo‘rixon hikoya va qissalari, romanlari o‘zbek nasri rivoji uchun katta ahamiyatga ega.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**САДУЛЛАЕВА МОХИРА АТАВУЛЛАЕВНА**

**ПРОБЛЕМА ХУДОЖЕСТВЕННОГО МАСТЕРСТВА В  
РАССКАЗАХ ЛУКМАНА БУРИХАНА**

**10.00.02 – Узбекская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**УРГЕНЧ-2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.3.PhD/Fil2732.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-сайте Научного совета ([www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

Научный руководитель:

Гайипов Дилшод Кадамбаевич  
доктор филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Каримов Баходир Нурматович  
доктор филологических наук, профессор

Керуенов Турганбай Аразмедович  
доктор филологических наук, доцент

Ведущая организация:

Кокандский государственный  
педагогический институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного Совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете «6» *апрель* соат *10:00* 2023 года. (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х.Алимджана, 14-уй. Тел: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00, e-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_\_). (Адрес: 220100, город Ургенч, улица Х. Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00.)

Автореферат диссертации разослан «18» *марта* 2023 года.

(Реестр протокола рассылки № *10* от «18» *марта* 2023 года)



*З.Дусимов*  
З.Дусимов  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филологических наук, профессор

*С.М.Сариев*  
С.М.Сариев  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филологических наук (DSc), доцент

*А.Д.Уразбоев*  
А.Д.Уразбоев  
вр.и.о. Председателя научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, доктор филологических  
наук (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Перед мировым литературоведением стоят очень важные литературоведческие вопросы, такие как художественное исследование мира и человеческих отношений через очарование искусства слова. В современную эпоху глобализации обновления и изменения, происходящие в социальной жизни человечества, должны отражаться в художественной литературе, а также служить повышению духовности этого общества. Произведения, пропагандирующие высокие общечеловеческие идеи и являющиеся частью сокровищницы мировой литературы, способствуют развитию художественного вкуса читателя, совершенствованию его мировоззрения и художественного мышления. Исходя из этого, изучение художественного таланта искусных писателей, создавших такие произведения, считается одним из актуальных вопросов, стоящих перед литературоведением.

В мировой литературе различаются формы художественности, объем художественного текста, мироощущение автора, выбор мира образов и поэтическое восприятие через них проблемы, эстетический идеал, мировоззрение, проблемы интерпретации, в целом исследуются особенности художественного мастерства писателя на примере созданного им творческого продукта. Важно проводить научные исследования на основе таких традиций, как интерпретация душевных страданий в произведениях, написанных тем или иным писателем в разные годы и в неповторимом стиле, создание неповторимого образа в пейзаже периода, характер и типические условия, проблема героя в художественном произведении.

В узбекском литературоведении исследование научной проблемы художественного мастерства творческой личности стало актуальным вопросом в годы независимости. Известно, что роль ученых, писателей и поэтов в совершенствовании национальной духовности и воспитании совершенной личности чрезвычайно велика. Ведь, как отметил Президент нашей страны: «Я нахожусь в постоянном общении с поэтами и писателями, художниками, композиторами, представителями средств массовой информации. Поэтому могу с полной уверенностью сказать, что это люди, очень преданные своей профессии, нашей Родине, нашему народу»<sup>38</sup>. На самом деле творческие деятели, поэты и писатели своими произведениями несут свет просвещения и знание в будущее. Если продукты их творчества будут созданы с уникальным мастерством, то желанная цель, безусловно, будет достигнута. В узбекской литературе немало произведений, являющихся продуктом художественного мастерства и созданных с прекрасным артистизмом. В литературе периода независимости расширились масштабы описания человека во всех аспектах, художественного раскрытия его внешнего и внутреннего мира. В частности, в произведениях Лукмана

---

<sup>38</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston". 2017. B. 477.

Бурихана образы людей советского периода и новой эпохи художественно воплощены через сложности, страдания и трагедии, оставленные тоталитарной системой в сердце человека. Также широкое место занимают мотивы наслаждения свободой, которую приносит независимость, и удовлетворение обновлениями. Поэтому изучение произведений писателя, в частности, повестей и рассказов, с точки зрения проблемы художественного мастерства, определение в них литературно-эстетических начал, исследование основных тенденций, характерных для современной узбекской прозы, определяет актуальность темы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Постановление Президента Республики Узбекистан за №ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», №ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», Закон ЗРУ-576 от 29 октября 2019 г. «О науке и научной деятельности», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением республиканского развития науки и техники I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Проблема художественного мастерства в узбекской литературе во все периоды находилась в центре внимания специалистов. Известно, что художественность – это ключ, раскрывающий идею произведения. Поэтому в литературоведении был проведен ряд исследований по проблеме художественного мастерства писателя. Узбекские ученые И. Султан, М. Кошжанов, О. Шарафиддинов, У. Норматов, Н. Каримов, И. Хаккулов, Б. Саримсаков, У. Туйчиев, Х. Умуров, А. Расулов, И. Гафуров, Б. Карим, Д. Куронов и другие ученые в своих научных исследованиях серьезно занимались такими вопросами, как критерии художественности, художественного мастерства творческой личности, литературно-эстетические факторы, определяющие индивидуальность писателя.

В то же время зарубежными<sup>39</sup> и узбекскими<sup>40</sup> учеными были проведены научные исследования<sup>41</sup> по вопросу образа и образности,

---

<sup>39</sup> Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Сов.писатель, 1963; Виноградов В.В. Поэтика

художественного мастерства, стиля писателя в литературе. В частности, выполнен ряд работ по поэтике узбекской прозы. Одним из первых исследований, написанных в этой связи за годы независимости, является работа профессора Х. Болтабоева «Проза и стиль», посвященная вопросу стилистического исследования современной узбекской прозы. Подчеркивая роль стиля в одаренности творческой личности, ученый пишет, что «сложный творческий процесс следует понимать исходя из внутренней природы и анализа конкретного художественного произведения»<sup>42</sup>, и подчеркивает, что стиль писателя является одним из важных факторов обеспечения художественности работы.

Работа Д. Куронова «Поэтика прозы Чулпона» служит важным источником для изучения проблем искусства прозы<sup>43</sup>. Безусловно, эти научные источники помогают нам монографически изучать поэтические особенности творчества Лукмана Бурихона в контексте всего литературного процесса.

Творчество Лукмана Бурихана, его художественное мастерство в определенном аспекте изучались рядом литературоведов и критиков, молодых исследователей. Например, в своих исследованиях Х. Каримов, Ю. Солижонов, Б. Каримов, К. Юлдошев, И. Якубов, М. Кучкарова, П. Кенжаева, Б. Рахимова, У. Рузиева и другие высказывают свои искренние рассуждения о творчестве писателя.

Литературовед Х. Каримов в своей статье «Особенности и принципы современной прозы» обращает внимание на особенности рассказов, повестей и романов периода независимости, а также тепло отзывается о романе Лукмана Бурихана «Люди в жару»<sup>44</sup>. К. Юлдошев отмечает, что особое место в современном литературном процессе занимает творчество Лукмана Бурихана, и анализирует ряд рассказов и повестей писателя, а также роман «Люди в жару»<sup>45</sup>.

Литературовед И. Якубов в своей монографии «Поэтика узбекских романов эпохи независимости» рассматривает поэтическую привлекательность романа Лукмана Бурихана «Люди в жару» и

---

русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 404; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛГУ, 1960.

<sup>40</sup> Қўшжонов М. Янги замон – янги қахрамон. – Тошкент: “Фан”. 1982; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: “Шарқ”, 2004; Умунов Х. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: “Фан”. 1983; Тўйчиев У. Бадиийлик мезонлари ва маромлари. – Тошкент: 2011; Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: “Фан”. 2006;

